

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/10.12.2019.I.16.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH ASOSIDA BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

NAMANGAN MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI

MIRZAMAHMUDOV MA'RUFJON MAXAMADSHARIF O'G'LI

**DAVLAT QARZI HISOBIDAN KAMBAG'ALLIKNI
QISQARTIRISH YO'LLARI**

**08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.02 – Makroiqtisodiyot**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по экономическим наукам**

**Content of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD)
in economic sciences**

Mirzamahmudov Ma'rufjon Maxamadsharif o'g'li Davlat qarzi hisobidan kambag'allikni qisqartirish yo'llari	3
Мирзамахмудов Маъруфжон Махамадшариф угли Пути сокращения бедности за счет государственного долга	31
Mirzamaxmudov Marufjon Maxamadsharif ugli Ways to reduce poverty by the means of public debt	61
E'lon qilingan ishlar ro'yxati Список опубликованных работ List of published works.....	65

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/10.12.2019.I.16.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH ASOSIDA BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

NAMANGAN MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI

MIRZAMAHMUDOV MA'RUFJON MAXAMADSHARIF O'G'LI

**DAVLAT QARZI HISOBIDAN KAMBAG'ALLIKNI
QISQARTIRISH YO'LLARI**

**08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.02 – Makroiqtisodiyot**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.2.PhD/Iqt1699 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Namangan muhandislik-texnologiya institutida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash web-sahifasi (www.tsue.uz) va "ZiyoNet" ta'lim axborot tarmog'ida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Maxmudov Nosir Maxmudovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Xudoyqulov Xurshid Xurramovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Umarov Ilxomjon Yuldashevich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi DSc.03/10.12.2019.I.16.01 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil "____" _____ kuni soat ____ dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100066, Toshkent shahri, I.Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel.: (71) 239-28-72; faks: (71) 239-43-51; e-mail: info@tsue.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (____ raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100066, Toshkent shahri, I.Karimov ko'chasi, 49-uy, Tel.: (71) 239-28-72; faks: (71) 239-43-51; e-mail: info@tsue.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil "____" _____ kuni tarqatildi.
(2024-yil "____" _____ dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi).

S.U. Mexmonov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash asosida bir martalik ilmiy kengash raisi, i.f.d., professor

U.V. Gafurov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash asosida bir martalik ilmiy kengash kotibi, i.f.d., professor

N.A. Xashimova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash asosida bir martalik ilmiy kengash huzuridagi ilmiy seminar raisi, i.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda rivojlanayotgan mamlakat hukumatlari tomonidan davlat qarzi hisobidan iqtisodiyotning o'sishini ta'minlash, buning natijasida, kambag'allikni qisqartirish doirasidagi munosabatlarga ko'p yillar davomida davlat siyosati darajasida yondashib kelinmoqda. Xususan, "kambag'allikka qarshi kurashish va davlat tashqi qarzining YaIMga nisbatan 60 foiz chegarasida saqlab turilishi, davlat qarzi kambag'allikni kamaytirishda samarali bo'lishi va davlat monetar hamda fiskal siyosatining mutanosib harakatlanishi mumkinligini ko'rsatadi"¹. Jumladan, Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, "Covid-19 pandemiyasi sharoitida jahon iqtisodiyotida boshlangan iqtisodiy inqiroz 2020-yilda kunlik daromadi 1,90 AQSh dollarigacha bo'lgan kambag'allar sonini 88 milliondan 115 milliongacha oshirdi. 2030-yilga borib, turli iqtisodiy xavflar va iqlim o'zgarishlari kambag'allar sonining yana 68 milliondan 132 milliongacha ko'payishiga sabab bo'ladi"². Jahon amaliyoti ko'rsatkichlari asosida namoyon bo'ladiki, davlat qarzini xavfsiz darajada saqlab turish hamda kambag'allikni qisqartirish bo'yicha chora-tadbirlar kuchaytirib borilmoqda va bu jarayon muntazam ravishda dolzarb bo'lib qolmoqda.

Jahonda iqtisodiy rivojlanish va kambag'allikni qisqartirishda davlat qarzining roli va unga muqobil moliyalashtirish instrumentlari izchil o'rganib kelinmoqda. Davlat qarzini samarali boshqarishning mamlakat iqtisodiy o'sishini rag'batlantirishi hamda aholi turmush darajasini yaxshilash, muhim infratuzilma, ta'lim, sog'liqni saqlash va ijtimoiy ta'minot dasturlariga sarmoya kiritish qobiliyatiga ta'siri, rivojlanayotgan mamlakatlarda davlat qarzini xavfsiz darajada saqlagan holda iqtisodiy rivojlanishni qo'llab-quvvatlash orqali kambag'allikni qisqartirish, shuningdek, davlat qarzi yukini kamaytirish nuqtayi nazaridan kapital bozori investorlar bazasini kengaytirish va likvidligini oshirish bilan bog'liqligi, davlat qarzi vositasida kambag'allikni qisqartirish darajasini baholashning uslubiy asoslarini kengaytirish muammolari bu borada amalga oshirilayotgan tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlaridan hisoblanadi.

Yangi O'zbekistonning taraqqiyot bosqichida amalga oshirilayotgan islohotlar, jumladan, yashil iqtisodiyotga o'tish, kambag'allikni tan olgan holda unga qarshi kurashish, gender tengligini ta'minlash va ijtimoiy inklyuzivlik siyosatini yuritish xalqaro tashkilotlar tomonidan ijobiy qabul qilingan holda, bu o'zgarishlar butun Markaziy Osiyo mintaqasi uchun harakatlanuvchi kuch bo'layotgani ta'kidlab kelinmoqda. Albatta, bu jarayonda davlat tashqi qarzining faol jalb qilinishi va xalqaro moliya institutlari ishtirokida ishlab chiqilgan islohotlar dasturlari Yangi O'zbekistonni tobora investitsion jozibador mamlakatga aylantirmoqda. Mazkur strategik rivojlanishni izchil davom ettirishda davlatning tashqi qarzini samarali boshqarish zarur bo'lib, bunda tashqi qarz jalb qilishning iqtisodiy rivojlanish, jumladan, kambag'allikka ta'sirini baholash hamda davlat qarziga muqobil moliyalashtirish instrumentlarini rivojlantirishni tadqiq qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

¹ UN ESCAP, Forward-looking Macroeconomic Policies – Re-examining Inflation and Debt Limits, MPDD Policy Briefs, #14, July 2013.

² UNITED NATIONS DEVELOPMENT PROGRAMME TEMPORARY BASIC INCOME: Protecting Poor and Vulnerable People in Developing Countries. July 2020. P.5.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-sonli “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi farmoni, 2023-yil 2-sentyabrdagi PQ-291-sonli “Kapital bozorini rivojlantirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2018-yil 16-iyuldagi PQ-3857-sonli “Xalqaro moliya institutlari va xorijiy hukumat moliya tashkilotlari ishtirokidagi loyihalarni tayyorlash va amalga oshirish samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2018-yil 21-iyuldagi PQ-3877-sonli “Tashqi moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiyalash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorlari hamda mazkur sohaga oid boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublikada fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma‘naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Davlat qarzi va kambag‘allik o‘rtasidagi bog‘liqlik klassik iqtisodchilar va Keyns izdoshlari hamda zamonaviy iqtisodiyotning yetuk namoyandalari, jumladan, A.Smit, D.Hume, D.Rikardo, F.Xayek, M.Fridman, J.Keyns, R.Kan, J.Tobin, J.Naeem, S.Sherbaz, E.Okon, O.Monday, C.Pattillo, L.A.Ricci va boshqalar tomonidan tadqiqotlar olib borilgan³.

MDH mamlakatlarida N.Tolstobrova, V.Postnikov, B.Alexin, I.Xamalinskiy, L.Axatova, F.Salimova, L.Agarkova, V.Agarkov, A.Smagin, L.Braginskaya, Ya.Mirkin davlat qarzidan samarali foydalanish va uning iqtisodiyot rivojlanishidagi ahamiyatining nazariy jihatlarini, shu jumladan, kapital bozorini rivojlantirish bo‘yicha ishlar olib borilganlar⁴.

O‘zbekistonlik olimlardan S.Gulyamov, N.Jumayev, D.Raxmonov, X.Xudoyqulov, N.Maxmudov, F.Xalbekova, D.G‘aniyev, F.Choriyev, S.Xayitov, I.Yakubov, N.Urmonov, X.Miraxmedov, R.Jasur va boshqalarning ilmiy tadqiqotlarida davlat qarzining iqtisodiyot o‘shidagi amaliy ahamiyati va pirovardida kambag‘allikka ta‘siri yoritilgan⁵. Mamlakatimizda kapital bozorini

³ Smit, A. Xalqlar boyligi, 1776.; Hume, D. Davlat krediti, 1752; Rikardo, D., Siyosiy iqtisod va soliqqa tortish tamoyillari, 1817.; Xayek, F.A., Serflikka yo‘l, 1944; Fridman, M., Kapitalizm va erkinlik, 1962.; Keyns, J. M., Bandlik, foiz va pulning umumiy nazariyasi, 1936; Kan, RF, Ichki investitsiyalarning ishsizlik darajasiga nisbati, 1931; Naeem, J., & Sherbaz, S., Indebtedness and poverty: the case of Pakistan. The Pakistan Development Review, 823-835,2016; Okon, E., & Monday, O., Empirical and evidence-based investigation: External debt, poverty and economic growth nexus. International Journal of Applied Economics, Finance and Accounting(1(1)), 37-47., 2017; Pattillo, C., & Ricci, L. A., External debt and growth. Review of, 30, 2011.

⁴ Толстоброва Н. А., Постников В. П., Каменских М. А. Влияние государственного долга на динамику развития экономики Российской Федерации //Финансы и кредит. – 2013. – №. 20 (548). – С. 37-42; Алехин Б. Государственный долг. – Litres, 2022; Хамалинский И. В. Государственный долг Российской Федерации: современное состояние //Вестник Международного института экономики и права. – 2017. – №. 1 (26). – С. 32-45.

⁵ G‘ulomov S.S., Ayupov R.H. Milliy iqtisodiyotda raqamli texnologiyalardan foydalanishning strategik ahamiyati; S.S.Gulyamov, N.X.Jumayev, D.A.Raxmonov. Ijtimoiy sohada investitsiyalarning samaradorligi. Monografiya. – T: IQTISODIYOT, 2019; Xudoyqulov X. Kapital qiymatni baholashning zamonaviy usullari //Economics and education. – 2021. – №. 6. – S. 110-116.; N.M.Maxmudov va boshqalar: “Makroiqtisodiy tahlil va prognozlashtirish” Darslik. T., 2014-yil. 265 bet; G‘aniyev D. Davlat qarzi va iqtisodiy o‘sh o‘rtasidagi bog‘liqlik– O‘zbekiston misolida //International Journal of Economics and Innovative Technologies. – 2022. – T. 10. – №. 3. – S. 422-429.; Axatova L.A., Salimova F.N. Влияние бюджетного дефицита и государственного долга на

rivojlantirish va uning asosida iqtisodiyot tarmoqlari investitsiya muhitini yaxshilash hamda kapital bozoridan samarali foydalanish usullari va ularni takomillashtirish yoʻnalishlarini I.Joʻrayev, Sh.Sultonov, J.Rahimov singari olimlarning ishlarida kuzatish mumkin⁶.

Biroq iqtisodchi olimlar tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlarida kapital bozorini rivojlantirish va uning davlat tashqi qarzining kamayishiga va kambagʻallikka taʼsiri masalalari alohida mustaqil mavzu sifatida tadqiq etilmagan. Iqtisodiy adabiyotlarda mazkur masala yuzasidan olib borilgan tadqiqotlar tahlili iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida mamlakat iqtisodiyotini jadal rivojlantirish va davlat qarzi yukini kamaytirishi hamda kambagʻallik qisqarishida toʻliq va samarali foydalanish zaruratini keltirib chiqaradi. Muammoning dolzarbligi, iqtisodiy adabiyotlarda yetarlicha oʻrganilmaganligi, kutilayotgan ilmiy natijalarning ilmiy-amaliy ahamiyatga egaligi mazkur mavzuni tadqiqot obyekti sifatida tanlashga asos boʻldi.

Dissertatsiya tadqiqotining oliy taʼlim muassasasi ilmiy tadqiqot ishlari rejasi bilan bogʻliqligi. Dissertatsiya ishi Oliy taʼlim, fan va innovatsiyalar vazirligining IL21101893-sonli “Kambagʻallikni kamaytirish va aholi turmush farovonligini oshirishga qaratilgan ilmiy-nazariy yondashuvlarni ishlab chiqish” mavzusidagi fundamental ilmiy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi davlat qarzi hisobidan iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini rivojlantirish orqali kambagʻallikni qisqartirishga yoʻnaltirilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

davlat tomonidan iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini strategik rivojlantirishni moliyalashtirish masalalarini tadqiq etish;

kambagʻallikni qisqartirishda davlat qarzidan foydalanishning ahamiyati va uning iqtisodiy-huquqiy maqomini yoritib berish;

kambagʻallikni qisqartirishda davlat qarzidan foydalanish samaradorligini baholashning ilmiy-uslubiy asoslarini oʻrganish;

davlat qarzini jalb qilish va uni boshqarishning zamonaviy amaliyotini yoritib berish;

развитие экономики //Скиф. Вопросы студенческой науки. – 2017. – №. 8. – С. 26-29.; Агаркова Л.В., Агарков В.В., Смагин А.А. Оценка состояния внешнего государственного долга //Экономика и управление: проблемы, решения. – 2018. – Т. 5. – №. 4. – С. 18-22. Брагинская Л. Государственный долг: анализ системы управления и оценка ее эффективности. – Litres, 2017; Миркин Я.М. Стратегия развития рынка капиталов-2020 //Экономические стратегии. – 2011. – Т. 13. – №. 12. – С. 18-31; Choriyev F.E., Xayitov S.B., Yakubov I.O. Ochiq iqtisodiyotda davlat qarzi dinamikasi va byudjet qoldigʻini davriy qisqartirish //Science and Education. – 2022. – Т. 3. – №. 7. – С. 359-369; Urmonov N.T. Davlat qarzi va uning makroiqtisodiy barqarorlikka taʼsiri // Архив научных исследований. – 2022. – Т. 4. – №. 1.; Miraxmedov X. Davlat qarzlarini boshqarishning rivojlangan xorij mamlakatlari tajribalari // Журнал Инновации в экономике. – 2022. – Т. 5. – №. 5.; Jasur R. Qimmatli qogʻozlar bozorini rivojlantirish orqali investitsiya faolligini oshirish yoʻnalishlari //Journal of Fundamental Studies. – 2023. – Т. 1. – №. 3. – S. 61-67; N. Jumayev, D. Raxmonov, D. Azimova. Oʻzbekistonda davlat qarzi va iqtisodiy globallashuv Monografiya. –T.: “Innovatsion rivojlanish nashriyoti-matbaa uyi”, 2020, 164 bet

⁶ Joʻrayev I.Oʻ. Oʻzbekistonda kapital bozorining rivojlanishida birja faoliyatining oʻrni //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2023. – Т. 3. – №. 3. – S. 1163-1169.; Sultonov Sh.N. Oʻzbekistonda fond bozorini tartibga solish yoʻllari //Oʻzbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali. – 2023. – Т. 2. – №. 19. – S. 16-26.; Rahimov J. Moliya bozorini rivojlantirish orqali investitsiya faolligini oshirish // Приоритетные направления, современные тенденции и перспективы развития финансового рынка. – 2023. – С. 41-43.

davlat qarzining salbiy oqibatlarini bartaraf etish maqsadida kapital bozorini rivojlantirish istiqbollari ko'rib chiqish;

davlat ishtirokidagi korxonalar va banklarning davlat kafolatisiz kapital bozoridan mablag' jalb qilish amaliyotini rag'batlantirish masalalarini tadqiq etish;

davlat tomonidan fiskal siyosatni tartibga soluvchi strategiya ishlab chiqishni rag'batlantirish asoslarini o'rganish;

davlat qarzini jalb qilishda uning ma'muriy salohiyatining ahamiyatini ko'rib chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining fiskal siyosati hamda davlat qarzini boshqarish siyosati tanlangan.

Tadqiqotning predmeti kambag'allikni qisqartirish va davlati qarzini jalb qilish hamda kapital bozorini rivojlantirish bilan bog'liq tashkiliy-iqtisodiy munosabatlar hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot ishida tizimli va qiyosiy tahlil, iqtisodiy-statistik tahlil va umumlashtirish, korrelyatsion va regression tahlil, prognozlash, SWOT-tahlil, tashkiliy-ma'muriy usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

kapital bozorida "boshqariladigan qumdonlar"dan foydalanish asosida davlat korxonalarining to'g'ridan-to'g'ri qarz jalb qilishini ta'minlash hamda davlatning tashqi qarzini xavfsiz darajada saqlash orqali mahalliy fond birjasiga xorijiy investorlarni jalb etish imkoniyatini kengaytirish taklifi asoslangan;

davlat korxonalarini tomonidan yillik qarz mablag'larining kamida 5 foizi kapital bozoridan jalb qilinishini majburiy norma sifatida belgilash orqali bevosita qarz jalb qilish amaliyotini mustahkamlash hamda mahalliy fond birjasidan to'g'ridan-to'g'ri investitsiya jalb qilishni samarali tashkil etish asoslangan;

fiskal xatarlarni kamaytirish hamda aholi daromadi va moliyaviy savodxonligini oshirish orqali kambag'allikni qisqartirish maqsadida jamg'arib boriladigan ixtiyoriy va majburiy pensiya badallarini kapital bozoridagi qimmatli qog'ozlarni sotib olishga yo'naltirish asoslangan;

aholining daromadi va moliyaviy savodxonligini oshirish hamda davlat korxonalarini uchun investorlar bazasini kengaytirish orqali kambag'allikni qisqartirish maqsadida jismoniy shaxslarni dividendlar tarzidagi daromadlari bo'yicha hisoblangan soliqdan ozod qilish taklifi asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

davlat qarzi hisobidan moliyalashtirilayotgan loyihani boshqarish guruhlarini tegishli viloyat hokimiyatlari tarkibiga o'tkazish orqali loyiha boshqaruvini nomarkazlashtirishning nazariy asoslari va mohiyati yoritib berilgan;

jalb qilingan davlat qarzi doirasida yechib olinayotgan mablag'larni G'aznachilik qo'mitasida ochilgan G'aznachilik hisobvaraqlariga o'tkazish orqali pul oqimini markazlashtirishga qaratilgan takliflar ishlab chiqilgan;

"Kafolat jamg'armasi"ning qoldiq mablag'larini yillik davlat tashqi qarzi qoldig'ining 10 foizi miqdorida saqlab turish strategiyasini ishlab chiqishga qaratilgan amaliy tavsiyalar berilgan;

O‘zbekiston Respublikasi nomidan jalb etilayotgan tashqi qarz qoldig‘ining iqtisodiyotni rivojlantirishdagi samarasi yuqori ekanligi va kambag‘allikka ta’sir qilmasligining nazariy asoslari yoritib berilgan;

jami daromaddan REPO operatsiyalari bo‘yicha daromadni chiqarib tashlash kapital harakatini jonlantirishi, fiskal xatarlarni pasaytirishi taklifi uslubiy jihatdan takomillashtirilgan;

Davlat investitsiyasini boshqarish (PIM) markazini tashkil etish va investitsiya loyihalarini ijtimoiy nafillik darajasidan kelib chiqib tanlash tizimini yaratish davlat qarzidan samarali foydalanishga olib kelishi yuzasidan amaliy takliflar taqdim etilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi dissertatsiyada qo‘llanilgan yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi, ekonometrik va matematik usullarning asoslanganligi, statistik ma’lumotlarning O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi, O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi ma’lumotlari hamda boshqa rasman e’lon qilingan amaliy ma’lumotlar tahliliga asoslanganligi va tegishli xulosa, taklif va tavsiyalarining yuqori tashkilotlar tomonidan amaliyotga joriy etilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati izlanishlar davomida olingan va ilgari surilgan nazariy yondashuvlar, ilmiy taklif hamda tavsiyalardan davlat qarzini samarali boshqarish, kambag‘allikni qisqartirishga qaratilgan investitsion loyihalarni, maqsadli rivojlantirish dasturlari va ustuvor yo‘nalishlariga oid ilmiy tadqiqotlarning uslubiy asoslarini takomillashtirishda keng foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan amaliy taklif va tavsiyalardan kapital bozorini rivojlantirish va kambag‘allikni qisqartirishda bazaviy infratuzilmani moliyalashtirishga qaratilgan strategiyalar va davlat maqsadli dasturlarini ishlab chiqish, mavjud tabiiy-iqtisodiy salohiyatdan samarali foydalanish yo‘llarini aniqlash, tizimli monitoringni amalga oshirish, yangi investitsiya loyihalarini amalga oshirish, mahalliy hokimliklarning hududiy infratuzilmani rivojlantirishdagi mas’uliyati va vazifalarini aniqlashtirishda keng foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Davlat qarzi hisobidan iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini rivojlantirish orqali kambag‘allikni qisqartirishga oid ishlab chiqilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar asosida:

kapital bozorida “boshqariladigan qumdonlar”dan foydalanish asosida davlat korxonalarining to‘g‘ridan-to‘g‘ri qarz jalb qilishini ta’minlash hamda davlat tashqi qarzini xavfsiz darajada saqlash orqali mahalliy fond birjasiga xorijiy investorlarni jalb etish imkoniyatini kengaytirish taklifidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 2-sentyabrdagi PQ–291-sonli “Kapital bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorini tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2023-yil 23-avgustdagi 02/22-1-455-sonli ma’lumotnomasi). Mazkur taklifning joriy etilishi natijasida mahalliy fond birjasiga xorijiy investorlarning kirib kelishi va ijtimoiy infratuzilmaga investitsiya jalb qilish imkoniyati mustahkamlangan;

davlat korxonalari tomonidan yillik qarz mablag'larining kamida 5 foizi kapital bozoridan jalb qilinishini majburiy norma sifatida belgilash orqali bevosita qarz jalb qilish amaliyotini mustahkamlash hamda mahalliy fond birjasidan to'g'ridan-to'g'ri investitsiya jalb qilishni samarali tashkil etish taklifidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 2-sentyabrdagi PQ-291-sonli "Kapital bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorini tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2023-yil 23-avgustdagi 02/22-1-455-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur taklifning joriy etilishi natijasida mahalliy fond birjasi ijtimoiy infratuzilmani saqlovchi va yaratuvchi korxonalarining davlat nomidan qarz olish amaliyotini kamaytirish va mahalliy fond birjasidan to'g'ridan-to'g'ri investitsiya jalb qilishni samarali tashkil etish imkoni yaratilgan;

fiskal xatarlarni kamaytirish hamda aholi daromadi va moliyaviy savodxonligini oshirish orqali kambag'allikni qisqartirish maqsadida jamg'arib boriladigan ixtiyoriy va majburiy pensiya badallarini kapital bozoridagi qimmatli qog'ozlarni sotib olishga yo'naltirish taklifidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 2-sentyabrdagi PQ-291-sonli "Kapital bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorini tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2023-yil 23-avgustdagi 02/22-1-455-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur taklifni joriy etish natijasida kapital bozoriga qo'shimcha 1 trln. so'mdan ortiq mablag'larni jalb qilish va davlat korxonalari uchun qo'shimcha investitsiya mablag'larini hosil qilish imkoni yaratilgan;

aholining daromadi va moliyaviy savodxonligini oshirish hamda davlat korxonalari uchun investorlar bazasini kengaytirish orqali kambag'allikni qisqartirish maqsadida jismoniy shaxslarni dividendlar tarzidagi daromadlari bo'yicha hisoblangan soliqdan ozod qilish taklifidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 2-sentyabrdagi PQ-291-sonli "Kapital bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorini tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2023-yil 23-avgustdagi 02/22-1-455-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur taklifning joriy etilishi natijasida kapital bozoriga qo'shimcha 8,6 trln. so'mdan ortiq mablag'larni jalb qilish va davlat korxonalari uchun qo'shimcha investitsiya mablag'larini hosil qilish, davlat qarzining xavfsiz chegarasini 60 foizda saqlab qolgan holda O'zbekiston Respublikasi nomidan va uning kafolati ostida yangi qarzlarni jalb qilish bo'yicha yillik limitlarni belgilash uchun asosiy ko'rsatkich sifatida saqlab qolish, ijtimoiy inklyuzivlik siyosatini qo'llab-quvvatlash hamda davlat korxonalarining fiskal xatarlarini samarali boshqarish imkoni yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 9 ta, jumladan, 5 ta respublika va 4 ta xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 17 ta ilmiy ish, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta maqola, jumladan, 4 tasi respublika va 3 tasi xorijiy ilmiy jurnallarda chop etilgan hamda 1 ta monografiya nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, 3 ta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 111 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida tadqiqot ishining dolzarbligi va zarurati asoslangan, maqsadi va vazifalari hamda obyekti va predmeti belgilab olingan, respublikada fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi asoslab berilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati yoritib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, dissertatsiya tuzilishi va hajmi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Davlat qarzidan samarali foydalanish asosida kambag'allikni qisqartirishning nazariy va amaliy jihatlari”** deb nomlanib, unda milliy iqtisodiyotdagi talabni rag'batlantirish, jamiyat hayotida fuqarolarning iqtisodiy madaniyatini yuksaltirish hamda kambag'allikni qisqartirishga qaratilgan ekspansion fiskal siyosat olib borishda davlat qarzining nazariy va amaliy jihatlari tahlil qilingan. Xususan, tahlil jarayonida iqtisodiy ta'limotlar tarixiga murojaat qilinib, A.Smit va J.Keyns iqtisodiy maktablari a'zolarining fikr-mulohazalari solishtirilgan, davlat qarzining monetar va fiskal siyosatni amalga oshirishdagi iqtisodiy mohiyati hamda kambag'illikni pasaytirishga ta'sirini baholashning nazariy va amaliy jihatlari ko'rib chiqilgan.

Rivojlangan mamlakatlar tajribasiga muvofiq aytish mumkinki, strategik rivojlantirishga qaratilgan islohotlarni amalga oshirish uchun ko'plab moliyalashtirish instrumentlari orasida davlat moliyasi o'z ekspansion fiskal siyosati orqali samarali va barqaror instrumentni taklif etadi. Albatta, mazkur instrument tabiiy ravishda davlat byudjeti defitsiti va unga proporsional davlatning qarzi ortishiga sabab bo'ladi, biroq bunday siyosat iqtisodiy o'sishni sog'lom darajaga ta'minlashga qaratilgan bo'lib, bu biznes jarayonining qisqarish davrida talab qilinadi.

Bunda, Hukumat ishsizlikni kamaytirish, iste'molchilar talabini oshirish va tanazzulni bartaraf etish maqsadida davlat byudjeti soliqlarini kamaytiradi va xarajatlarini oshiradi. Natijada yuzaga kelgan davlat byudjeti defitsiti davlat qarzi bilan qoplanadi (subsidiyalar, transfert to'lovlari (shu jumladan, farovonlik dasturlari) va ish haqiga soliqlarni kamaytirish orqali ekspansion fiskal siyosat iste'molchilariga xarid qobiliyatini oshirishda qo'l keladi).

Jamoat ishlarini ko'paytirish yoki yangi davlat xodimlarini qo'shimcha mehnatga jalb qilish orqali ishsizlik darajasini pasaytiradi, bu esa talabni hamda iqtisodiyotning asosiy qismini boshqaruvchi iste'mol xarajatlarini oshiradi⁷.

Muallifning fikricha, SWOT tahlil davlat qarzining jalb etilishi strategik vosita bo'lib, fiskal risklarni boshqarish uchun fiskal qoidalar joriy etilib, doimiy takomillashtirib borilsa, qarz chegaralari maqbullashtirilib, valyuta risklari muvofiqlashtirilsa (xedjirlansa), tashqi qarz hisobiga amalga oshirilgan loyihalar

⁷ Кричевская Т. Глобальные и национальные факторы эффективности денежно-кредитных и финансовых механизмов стабилизации экономического развития //Multi-cultural research мультикультурные исследования.

samaradorligi ta'minlansa, tashqi qarz mablag'lari mamlakatning imijini yuzaga keltirishi hamda qarz portfelini diversifikatsiya qilishi natijasida mamlakatdagi infratuzilma loyihalari hamda strategik islohotlarni moliyalashtirish uchun qo'shimcha arzon (uzoq muddatli) xorijiy kapitalni jalb etadi (1-jadval).

Muallif iqtisodchi olimlarning tashqi qarz borasidagi fikrlarini tahlil qilgan holda, klassik liberalizm va neoklassik iqtisod ta'sirida bo'lgan klassik iqtisodchilar odatda davlat qarzigaga ehtiyotkorlik bilan yondashganliklarini aniqladi. Olimlarning fikricha, ortiqcha davlat qarzlari iqtisodiyot va kelajak avlodlarga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

1-jadval

Davlat tashqi qarzining iqtisodiyotga ta'sirini baholash bo'yicha SWOT-tahlil⁸

	Ko'maklashadi	Muammo yaratadi
Ichki ta'sir	<p>Kuchli (Strength) tomonlari</p> <ul style="list-style-type: none"> Infratuzilma loyihalarini moliyalashtirish uchun xorijiy kapital jalb qilinadi Moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilinadi, jumladan, ichki moliyaviy manbalarga bo'lgan yuk kamaytiriladi Tashqi qarz to'lov muddatlari uzoq muddatli bo'lganligi sababli, qarzga xizmat ko'rsatish bo'yicha to'lov yuki kamaytiriladi 	<p>Kuchsiz (Weakness) tomonlari</p> <ul style="list-style-type: none"> Davlat tashqi qarzi asosan xorijiy valyutada jalb qilinganligi sababli, valyuta riski saqlanib qoladi Global iqtisodiy zarbalar natijasida o'zgaruvchi foiz stavkalarining keskin ortishi xavfi saqlanib qoladi Tashqi qarzni jalb qilish xarajatlari ichki qarzga nisbatan yuqoriligi, qarz olishning umumiy xarajatlarini oshiradi
Tashqi ta'sir	<p>Imkoniyat (Opportunity)</p> <ul style="list-style-type: none"> Ustuvor ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni moliyalashtirish uchun qo'shimcha manba jalb qilinadi Xalqaro moliya bozorlariga chiqish imkoniyati yaratilishi natijasida mamlakatning xalqaro iqtisodiyotda imiji paydo bo'ladi Barqaror davlat tashqi qarzining kredit reytinglarini yaxshilab, qarz jalb qilish bo'yicha yaxshiroq shartlarni ta'minlaydi va xorijiy investitsiyalarni jalb qiladi 	<p>Tahdid (Threat)</p> <ul style="list-style-type: none"> Davlatning tashqi qarzi qoldig'ining yuqori qarz chegarasidan ortib ketishi mamlakatlarni kredit defoltiga olib kelishi mumkin Davlatning tashqi qarzini noto'g'ri boshqarish mamlakatning xalqaro bozorlardagi obro'siga putur yetkazadi, kelajakda xorijiy kapital kirishini qiyinlashtiradi Tashqi kreditorlar o'z kreditlariga siyosat islohotlari yoki xususiyashtirish talablari kabi shartlarni qo'shishi mumkin, bu esa mamlakatning siyosat mustaqilligini cheklashi va fuqarolarga potensial zarar yetkazishi mumkin

Jumladan, A. Smit davlat tashkilotlariga foyda keltirmaydigan subyekt sifatida yondashgan va davlatning tashqi qarzini jalb etish milliy sanoat tarmoqlariga yuk bo'lishi orqali uning (sanoatning) samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi hamda qarz siyosati xususiy kapitalni siqib chiqarishini e'tiborga olgan holda davlatning qarz jalb etishi tarafdori bo'lmagan.

D.Rikardoning fikricha, davlat qarzi hisobiga iste'molni amalga oshirish kelajakda qiymat yaratmaydi, aksincha, kelajakdagi soliq to'lovchilar uchun soliq yukini oshiradi. Zero, kreditor uchun sanoatga investitsiya kiritishga nisbatan xalqning daromadi (davlat byudjeti) hisobidan foyda olish risksiz hisoblanadi. Bu

⁸ Xorijiy adabiyotlarni o'rganish asosida muallif tomonidan tuzilgan.

esa, yana bir bor iqtisodiyotda mehnat taqsimotini chegaralaydi va kapitalning kamayishiga olib keladi, deb hisoblaydi.

Tomas Robert Maltus talab bilan harakatga keltirilgan klassik iqtisodiyot o'zini o'zi boshqarishiga ishonmagan. U talabning yetishmasligidan xavfsiragan va davlat qarzi vositasida talabni rag'batlantirish imkoniyatini ko'rgan. Maltusning fikricha, foiz hisobiga yashaydiganlar milliy boylik taqsimoti va talabga katta hissa qo'shib, ishlab chiqarishni rag'batlantirish uchun zarur bo'lgan samarali iste'molni ta'minlaydilar. Shuning uchun, T.Maltus davlat qarzini milliy iqtisodiyotda yaratuvchilik roli bilan baholagan⁹.

A.Xamiltonning (1913) fikricha esa, davlat qarzi mamlakatni izolyatsiyadan chiqaradi, sanoatni rivojlantiradi va soliq bazasini shakllantiradi. Biroq A.Xamilton milliy iqtisodiyotning barqaror o'sishini ta'minlash uchun davlat qarz chegarasi belgilab olinishi va unga qat'iy rioya etilishi zarurligini ta'kidlagan.

D.Keyns nazariyasiga binoan inqiroz yoki iqtisodiy turg'unlik davrida soliqlarni kamaytirish va davlat xarajatlarini ko'paytirish kerak. Bunda davlat qarzini jalb etish evaziga davlat byudjeti taqchilligi qoplanadi, jumladan, kredit mablag'lari hisobidan davlat xarajatlarini oshirish, iqtisodiyotda yalpi talabni oshirishi nuqtayi nazaridan, kelajakdagi iqtisodiy samaraga olib keladi. Shunday ekan, davlat qarzi iqtisodiy siyosatining ajralmas qismiga aylanadi hamda buni quyidagi davlat qarzi to'g'risidagi klassik iqtisodchilar va Keyns ta'limoti izdoshlarining fikrlari taqqoslamasida ham kuzatish mumkin.

Muallif yuqorida keltirilgan iqtisodiy ta'limotlar maktablari vakillarining qarama-qarshi fikrlarini solishtirgan holda davlat qarzini tahlil qilar ekan, davlat qarzining avzallik va kamchiliklari to'g'risida xulosaga kelishdan oldin quyida keltirilgan munozarali savollarga ularning nuqtayi nazaridan javob berish va taqqoslash orqali yetarlicha xulosaga ega bo'lish imkoni yuzaga keladi, deb hisoblaydi. Xususan:

1) Davlat qarzi kelajak avlodlar uchun qarz yukini yuzaga keltiradimi? Davlat qarzi xususiy sektordan jalb qilinadi, buning natijasida erishilmagan foyda qarz jalb qilingan davrdagilar zimmasiga yuklanadi. Davlat qarzi ham tarkibiga ko'ra soliqlardan farq qilmaydi va ular hozirgi kunda yashaydiganlar uchun yo'qotilgan foydani anglatadi.

Boshqa tomondan esa, bugungi kunda jalb qilingan (tashqi va ichki) davlat qarzi hisobiga ijtimoiy infratuzilma (ta'lim va tibbiyot muassasalari, energiya va suv ta'minoti tizimi) uchun xarajat qiladi, ya'ni bugungi kundagi jamiyat mazkur mablag'larni sarflaydi. Keyingi avlod yaratilgan infratuzilmadan foydalanganligi uchun soliq to'laydi xolos.

Demak, davlat bir qatlamdan soliq undirsa, ikkinchisiga foiz va boshqa to'lovlarni amalga oshiradi. Natijada, fiskal siyosat orqali mamlakatdagi pul mablag'lari harakatini tezlashtirish va milliy boylikni qayta taqsimlashni amalga oshiradi.

2) Davlat qarzi xususiy sektor tomonidan jalb qilingan qarzga o'xshaydimi? Davlat qarzini yuridik va jismoniy shaxs o'z qarzini to'lash uchun kelajakdagi

⁹ Buchaman, J. Public Principle of Public Debt. A Defence and Restatement. Richard D. Irvin, 1958. Malthus, T.R. An Essay on the Principle of Population. John Murray.1926. Library of Economics and Liberty. <http://www.econlib.org/library/Malthus/malPlo ngI.html>.

iste'molini kamaytirganidek, davlat ham defitsitni moliyalashtirish davrida yig'ilib qolgan qarzдорlikni yopishi uchun kelajak avlod turmush darajasi pastlashuviga ko'nikadi degan farazni tarozining ikki pallasiga qo'yganimizda, albatta, uni xususiy qarzga o'xshatish mumkin bo'lardi.

2-jadval

Davlat qarzi to'g'risida klassik iqtisodchilar va Keynes ta'limoti izdoshlarining fikrlari to'g'risida ma'lumot¹⁰

Iqtisodiy munosabat	Klassik iqtisodchilar	Keyns ta'limoti izdoshlari
Davlat qarziga munosabat	Davlat qarzi kelajak avlodlar uchun yuk bo'lib qoladi	Davlat qarzi talabni rag'batlantirish uchun potensial vosita, deb hisoblaganlar
Iqtisodiy rag'batlantirish	Hukumatning tashqi qarz vositasida iqtisodiyotga aralashuvini cheklaydi	Ekspansion (kontr-siklik) fiskal siyosat olib borishi va defitsit xarajatlarini himoya qilishini ta'kidlaydi
Chetlatish (crowding out) siyosati	Davlat qarzi xususiy investitsiyalarni siqib chiqaradi, deb hisoblaydi	Xususiy investitsiyalarning siqib chiqarilishini inkor etmaydi, lekin talabni rag'batlantirishni ustuvor, deb hisoblaydi
Inflyatsiya bosimi	Katta miqdordagi tashqari qarz inflyatsiyani keltirib chiqarish potentsiali mavjudligini ta'kidlaydilar	Inflyatsiya xavfini tan oladi, biroq ishsizlik darajasini pasaytirish ustuvorligini ta'kidlaydilar
Bozor mexanizmi	Davlat aralashuvini cheklash va bozor mexanizmlarini joriy etishni ma'qullaydilar	Davlat aralashuvi bozordagi muvaffaqiyatsizliklarni bartaraf etishi va talabni oshirishi mumkinligini ta'kidlaydilar
Qarz barqarorligi	Moliyaviy intizomni saqlash muhimligini ta'kidlaydilar	Uzoq muddatli barqarorlikni ta'minlash uchun iqtisodiy o'sish davrida davlat qarzini cheklashni maslahat beradilar

Biroq, davlat moliyasi, ayniqsa, ichki qarz hisoblanganda, shaxsiy moliyaning analogi emas. Xususiy sektor uchun foiz haqiqiy yuklamadir, chunki uning jamg'armalari va iste'moli kamayadi, zero qarzning to'lov qobiliyati qarz beruvchiga qaytarilishi zarur. Shu ma'noda xususiy qarz davlatning tashqi qarziga o'xshaydi. Lekin davlat qarzi ichki bo'lsa, shuningdek, kreditorlar shu fuqarolikka ega soliq to'lovchilar bilan bir mamlakatda yashasa, sof foyda mamlakatdan tashqariga chiqmaydi.

Muallifning fikricha, tashqi qarz holatida klassiklarning g'oyalari deyarli to'liq to'g'ridir. Qarz yuki kelajakka o'tadi, chunki qarz yuzaga kelgan vaqtda aholi hech narsani sarflamaydi. Yuk esa – bu norezidentlarga milliy daromaddan to'lanadigan foiz to'lovlari hisoblanadi. Kelajak avlodlar bu transfertlarning ekvivalentini qabul qilib olmasligi ham mumkin. To'lov miqdori ham norezidentlarga o'tkazib beriladi. Bu shuni anglatadiki, bu miqdordagi ichki resurslar xorijga chiqadi. Natijada davlat tashqi qarzining xususiy qarz bilan o'xshashligi to'g'ri bo'ladi.


Demak, inklyuziv iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishga qaratilgan siyosat iqtisodiy o'sishning afzalliklari jamiyatda kengroq taqsimlanishini ta'minlash

¹⁰ Xorijiy adabiyotlarni o'rganish asosida muallif tomonidan tuzildi.

orqali kambag'allikni qisqartirishga yordam berishi hamda infratuzilmani rivojlantirish esa, albatta, asosiy xizmatlardan foydalanishni yaxshilash, iqtisodiy imkoniyatlar yaratish va inklyuziv iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlash orqali kambag'allikni qisqartirishda muhim o'rin tutishini ta'kidlash muhimdir.

Rivojlangan mamlakatlarda davlat qarzi va kambag'allik o'rtasidagi sezilarli ijobiy munosabatni tasdiqlaydi, bu mazkur masala bo'yicha avvalgi tadqiqotlarga mos keladi va qarz barqarorligiga alohida ahamiyat berish, iqtisodiy o'sish va inson taraqqiyotiga sarmoya kiritish, tashqi qarzni oqilona boshqarish va kambag'allik bilan bog'liq boshqa omillar, masalan, ishsizlik va resurslarning cheklanishini bartaraf etishda hushyor bo'lish tavsiya etiladi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Davlat qarzidan foydalanish va kambag'allikni qisqartirish holatining iqtisodiy tahlili”**ga bag'ishlangan bo'lib, bunda O'zbekiston Respublikasida davlat qarzini jalb etish jarayonidagi islohotlar hamda kambag'allikni qisqartirishga qaratilgan chora-tadbirlarni moliyalashtirishda jalb qilingan davlat tashqi qarzining ahamiyati ko'rsatib o'tilgan.



1-rasm. O'zbekiston Respublikasining umumiy tashqi qarzi tarkibi, (%da)¹¹

Jumladan, davlat tomonidan olib borilgan fiskal siyosatni samarali tashkil etish natijasida kuzatish mumkinki, tashqi qarz va YaIM bir xil o'sish tendensiyasiga ega bo'lib, 1998–2022-yillar o'rtasida mos ravishda 1,3 mlrd. dollar va 3,3 mlrd. dollardan o'sib borgan (1-rasm).

1-rasmda berilgan davr mobaynida aholi soni o'sishi o'rtacha 476 ming nafarni tashkil etib, 24,1 mln. nafar aholidan 36,0 mln. nafar aholi demografiyasi shakllangan bo'lsa-da, mamlakatdagi kambag'allik darajasi (jami aholi tarkibidagi kam ta'minlangan aholi ulushi) qariyb 29 foizdan 11 foizga tushgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni bilan tasdiqlangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasiga muvofiq, 2026-yilga borib,

¹¹ O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki va Statistika agentligi ma'lumotlari.

mamlakatimizda kambag‘allik darajasini 2 barobarga qisqartirish vazifasi belgilangan¹².

Birinchiidan, mamlakatimizda kambag‘allikni qisqartirishning asosiy yo‘nalishlaridan biri makroiqtisodiy o‘shishni ta‘minlash hisoblanib, 2026-yilgacha aholi jon boshiga YaIMni – 2,8 ming va 2030-yilga borib, 4 ming AQSh dollaridan oshirish hamda “daromadi o‘rtachadan yuqori bo‘lgan davlatlar” qatoriga kirish maqsad qilib olingan. Xususan, 2021-yil natijalariga ko‘ra, mazkur ko‘rsatkich 1 983 dollarni tashkil etgan bo‘lsa, 2022-yilning yakunlariga kelib, bu ko‘rsatkich 2 255 dollarga yetgan¹².

Ma‘lumot uchun: mamlakatdagi aholi soni (36 mln.) 2022-yilda 1991-yilga nisbatan (20 mln.) 1,8 barobarga oshganligiga qaramay, aholi jon boshiga to‘g‘ri keluvchi YaIM hajmi oshishi ta‘minlanmoqda. Agar Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligiga kirgan davlatlar bilan solishtirilsa, Rossiya, Qozog‘iston, Moldova davlatlarida esa aholi soni o‘zgarmagan holda iqtisodiy o‘shishga erishilgan.

Ikkinchiidan, mamlakatda inson kapitalini rivojlantirishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasiga asosan 2026-yilgacha maktabgacha ta‘lim qamrovini 80 foizgacha (joriy 70,3 foiz), oliy ta‘lim bilan qamrov darajasini esa 50 foizgacha (joriy 38 foiz) yetkazish rejalashtirilgan. 2016-yilda maktabgacha ta‘lim 27,7 foizni, oliy ta‘lim bilan qamrov esa 9 foizni tashkil etgan¹².

Shu qatori so‘nggi 5 yilda inson kapitalini rivojlantirish maqsadida 375 mingta yangi o‘quvchi o‘rni yaratildi, 27,5 ming maktabgacha ta‘lim va 1,7 mingga yaqin tibbiyot muassasalari qurildi. 180 mingtadan ortiq yangi uy joylari qurilib, har yili qurib topshirilgan uylarning soni 3,5 martaga ko‘paydi, 6 mln. nafardan ortiq aholining ichimlik suvi ta‘minoti yaxshilandi, 36,6 ming km dan ziyod ichki yo‘llar ta‘mirlanib, qurilish ishlari amalga oshirildi¹².

Uchinchiidan, hududlarda tadbirkorlikni rivojlantirish va aholi bandligini ta‘minlash ham kambag‘allikni qisqartirishda muhim o‘rin egallaydi. Shu maqsadida O‘zbekistonda mutlaqo yangi tizim, ya‘ni “hokim yordamchilari” instituti yaratildi. Ilk yildayoq hokim yordamchilari ko‘magida 1,2 mln. nafar aholi doimiy ish joylariga joylashtirildi, 1,1 mln. nafari o‘zini o‘zi band qilgan shaxs sifatida ro‘yxatga olindi, 102 ming nafari yakka tartibdagi tadbirkorlikka va 166 ming nafari haq to‘lanadigan jamoat ishlariga jalb qilindi, 430 ming nafari fuqarolarga ijara asosida yer maydonlari ajratildi¹².

Hokim yordamchilari tavsiyanomalari asosida oilaviy tadbirkorlik dasturlari doirasida 425 mingta loyihaga 10 trln. so‘mlik imtiyozli kreditlar va 75 ming nafari ishsiz fuqarolarga 263 mlrd. so‘mlik subsidiyalar ajratildi.

“Ishga marhamat” monomarkazlari va boshqa nodavlat ta‘lim muassasalarida 200 mingdan ortiq fuqarolar kasb-hunar va tadbirkorlikka o‘qitildi.

To‘rtinchidan, “Ijtimoiy himoya yagona reyestri” axborot tizimi joriy etilib, oilalarga bolalar nafaqasi va moddiy yordamni tayinlash uchun jon boshiga to‘g‘ri keluvchi bir oylik daromad mezoni minimal iste‘mol xarajatlariga, ya‘ni kambag‘allik chegarasiga tenglashtirildi. Natijada, kam ta‘minlangan oilalar soni 2019-yildagi 595 ming nafardan 2022-yilga kelib, 2,3 mln nafarga yetdi yoki 4 barobarga, 2021-yilga nisbatan 1,5 barobarga ko‘paydi¹³.

¹² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF–60-son farmoni.

Beshinchidan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 29-apreldagi PF-128-sonli “Ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlamlarini moddiy qo‘llab-quvvatlashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoniga muvofiq 2022-yil 1-maydan pensiya va ijtimoiy nafaqalar minimal iste‘mol xarajatlari qiymatidan kam bo‘lmagan miqdorda belgilandi.

O‘tgan davrda “Saxovat va ko‘mak” jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan “Temir daftar”ga kiritilgan 360,6 ming oilaga 300 mlrd. so‘mdan ortiq miqdorda moddiy yordam ko‘rsatildi.

Aholini oziq-ovqat, jumladan, chorva va parrandachilik mahsulotlari bilan uzluksiz ta‘minlash chora-tadbirlariga muvofiq, 264,7 ming ehtiyojmand oilaga takroriy ekin uchun 88,5 ming gektar yer hamda 154,4 ming oilaga 28,6 ming tonna bug‘doy klaster va fermer xo‘jaliklari tomonidan bepul tarqatildi.

Hukumat tomonidan aholining daromad manbalarini ko‘paytirish va ularni mustahkamlashga jiddiy e‘tibor qaratilishi natijasida, mustaqillik yillarida mamlakatimizda “Har bir oila – tadbirkor”, “Hunarmandchilikni rivojlantirish”, “Yoshlar kelajagimiz”, “Har yoshga bir gektar”, “Tadbirkor ayol” singari faol ijtimoiy himoya dasturlari izchil amalga oshirib kelinmoqda.

Shu bilan birga, O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamdagi islohotlarni amalga oshirish maqsadida 2023-yilning 1-yanvar holatiga O‘zbekistonning davlat qarzi 29,2 mlrd. dollarga yetgan bo‘lib, davlat qarzi 2022-yil 3-choragiga nisbatan 3,1 mlrd. AQSh dollariga ko‘paygan, YaIMga nisbatan ulushi ham 2,3 foizga oshib, 34,1 foizdan 36,4 foizga yetgan (taqqoslash uchun, 2023-yilning 1-yanvar holatiga davlat qarzi 29,2 mlrd. AQSh dollarini tashkil etgan).


Ta‘kidlash joizki, davlatning tashqi qarzini saqlab turish uchun Hukumat tomonidan bir qancha administrativ choralar ko‘rildi. Jumladan, davlat qarzini xavfsiz chegarada saqlab turish uchun O‘zbekiston Respublikasining “2020-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi qonuni bilan 2020-yil davomida O‘zbekiston Respublikasi nomidan yoki O‘zbekiston Respublikasi kafolati ostida tashqi qarzni jalb etish bo‘yicha imzolangan yangi shartnomalarning chegaralangan hajmi 5,5 mlrd. AQSh dollari miqdorida belgilandi. “2022-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi qonuniga muvofiq joriy yilda 4,5 mlrd. AQSh dollari miqdoridagi davlatning tashqi qarzini jalb qilish belgilangan.

Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi davlatning tashqi qarzi qoldig‘ining YaIMga nisbatan hisoblangan bexatar chegarasi (xavfsiz chegarasi) “2021-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi qonunga muvofiq 60 foizdan oshmasligi ko‘rsatildi.

Statistik ma‘lumotlarga ko‘ra, davlatning tashqi qarzi qoldig‘i 2023-yil 1-yanvar holatiga 25,9 mlrd. AQSh dollarini tashkil qilib, jalb qilingan mablag‘lar, avvalo, davlat byudjeti defitsitini qoplash hamda ijtimoiy va iqtisodiy infratuzilma loyihalarini moliyalashtirish uchun sarflanmoqda.

Yuqorida keltirib o‘tilganidek, davlat tomonidan belgilab olingan taraqqiyot dasturlarini jadal moliyalashtirish maqsadida tanlangan ta‘minlash hamda ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish maqsadida xalqaro moliya institutlaridan davlat byudjetini qo‘llab-quvvatlash maqsadida 8,6 mlrd. AQSh dollari miqdorida mablag‘lar jalb qilingan. Shu jumladan, o‘tgan davr mobaynida jalb qilingan

davlatning tashqi qarzi miqdori, avvalo, sanoat va uning infratuzilmasini qo‘llab-quvvatlash uchun jalb qilinganligi yoqilg‘i-energetika sanoati uchun eng ko‘p – 5,8 mlrd. AQSh dollari jalb qilinganligi bilan isbotlanadi.



2-rasm. O‘zbekiston Respublikasi davlat qarzi dinamikasi¹³

Xususan, 2023-yil 1-yanvar holatiga qariyb 2,6 mlrd. AQSh dollari ekvivalentidagi milliy va xorijiy valyutadagi suveren obligatsiyalar xalqaro moliya bozorlarida joylashtirilishi natijasida, avvalo, korporativ qimmatli qog‘ozlarga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda suveren riskni baholash imkoniyati yaratildi, bu milliy korxonalar va banklar uchun o‘z qimmatli qog‘ozlarini muomalaga kiritishda “benchmark” vazifasini bajaradi.

3-jadval

Davlat tashqi qarzining iqtisodiyot tarmoqlari kesimida taqsimlanishi¹⁴

o‘lchov bir. — mlrd. AQSh doll. ekv.

Sohalar	Qarz qoldig‘i (2016-y.)	Qarz qoldig‘i (2023-y.)	Farq
Byudjetni qo‘llab-quvvatlash	-	11,6	11,6
Yoqilg‘i-energetika sanoati	1,1	5,8	4,7
Qishloq va suv xo‘jaligi	0,7	2,8	2,1
Uy-joy kommunal xo‘jaligi	1,1	2,6	1,5
Tadbirkorlik faoliyati va sanoat ishlab chiqarishni qo‘llab-quvvatlash	0,2	1,1	0,9
Kimyo sanoati	0,3	0,9	0,6
Transport va transport infratuzilmasi	1,9	2,8	0,9
Sog‘liqni saqlash, ta‘lim, axborot va kommunikatsiya texnologiyalari va boshqalar	1,2	2,1	0,9
Jami	6,5	29,6	23,1

¹³ O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi web sayti. <https://www.imv.uz/static/umumiy-jadval>.

¹⁴ O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi web sayti. <https://www.imv.uz/static/umumiy-jadval>.

Bunda davlat tomonidan iqtisodiyotni barqaror va jadal rivojlantirishni moliyalashtirish maqsadida, avvalo, davlat egalik qiluvchi bank (korxonalar) o'z loyihalarini jahon moliya bozorlarida davlat kafolatisiz mablag' jalb qilish orqali moliyalashtirish amaliyotiga zamin yaratildi.

Mazkur korxonalar va banklarda transformatsiya jarayoni boshlandi, o'z moliyaviy hisobotlarining shaffofligi ta'minlandi, xalqaro reyting agentliklari ("Fitch", "S&P" va "Moody's") talablariga muvofiq va ular bilan hamkorlikda xalqaro kredit reytingi olindi.

4-jadval

Davlat korxonalar va banklari tomonidan muvaffaqiyatli joylashtirilgan yevrobondlar¹⁵

Emitent	Miqdori AQSh doll.	Muddati	Kupon foizi	Joylashtirish sanasi
"O'zsanoatqurilish-bank" ATB	300 mln.	5 yil	5,75%	2019
"O'zmilliybank" AJ	300 mln.	5 yil	4,85%	2020
"Ipoteka-bank" ATIB	300 mln.	5 yil	5,50%	2020
	785 mlrd. so'm (~75 mln. AQSh doll.)	3 yil	16,00%	2021
"UzAvto Motors" AJ	300 mln.	5 yil	4,85%	2021
"O'zbekneftgaz" AJ	700 mln.	7 yil	4,75%	2021
Jami	1 975,0 mln. AQSh doll. ekv.			

Natijada esa, 2019–2021-yillarda qariyb 2 mlrd. AQSh dollari miqdoridagi xalqaro obligatsiyalar chiqarish orqali jahon bozoridan jalb qilindi (4-jadval).

O'zbekiston Respublikasi davlatning tashqi qarzi portfeli valyuta tarkibining 75,7 foizi – AQSh dollari, 8,1 foizi – yapon iyenasi, 7,2 foizi – SDR (maxsus qarz olish huquqlari), 4,8 foizi – Yevro, 1,6 foizi – o'zbek so'mi, 2,6 foizi – boshqa valyutalardagi tashqi qarz hissasiga to'g'ri keladi¹⁵.

2023-yil 1-yanvar holatiga davlat ichki qarzi qoldig'i 3,3 mlrd. AQSh dollari (yoki YaIMga nisbatan 4,1 foizni) tashkil etgan. Jumladan, jalb qilingan mablag'larning 1,2 mlrd AQSh dollari ekvivalentidagi qismi (yoki jami davlat ichki qarzining 35 foizi) davlat qimmatli qog'ozlarini emissiya qilishdan hamda 2,2 mlrd. AQSh dollari (yoki 65 foizi) O'zbekiston Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi va tijorat banklaridan jalb qilingan.

Ta'kidlash joizki, 2018–2022-yillar davomida Respublika valyuta birjasida auksion savdolarini o'tkazish orqali 13 trln. so'mlik davlat qimmatli qog'ozlari muomalaga kiritilgan bo'lib, bu mablag'lar byudjetni qo'llab-quvvatlash maqsadida sarflangan hamda O'zbekistondagi tijorat banklaridan 1,4 mlrd. AQSh dollari miqdoridagi kreditlar mamlakat transport infratuzilmasini mustahkamlash va rivojlantirish uchun jalb etilgan. Shu bilan birga, davlat qimmatli qog'ozlarini chiqarish hajmini oshirilishi davlat ichki qarzi portfelini diversifikatsiya qilish hamda valyuta xatarlarini pasaytirish imkonini yaratadi.

¹⁵ Manba: www.imv.uz


O‘zbekiston Respublikasi davlat ichki qarzi dinamikasi¹⁶

mlrd. AQSh doll. ekv.

Ko‘rsatkichlar	Yillar							
	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023
Davlat ichki qarzi	3,2	4,0	5,0	2,1	2,3	2,7	3,3	5,3
Davlat nomidan jalb qilingan kreditlar	3,2	4,0	4,9	2,0	1,9	2,3	2,2	3,6
Davlat qimmatli qog‘ozlari	-	-	0,1	0,1	0,4	0,4	1,2	1,7

Davlat qimmatli qog‘ozlarining o‘rta va uzoq muddatlar uchun birja orqali sotilishi moliyaviy instrumentlar qiymatini hisoblashda benchmark vazifasini bajardi hamda bu instrumentlar risksiz bo‘lganligi sababli moliya bozoriga yangi institutsional investorlar (banklar va sug‘urta kompaniyalari)ning kirib kelishini ta’minladi.

Yangi O‘zbekiston konsepsiyasini amalga oshirish doirasida davlat tomonidan davlatning tashqi qarzini jalb etish sezilarli darajada ortgan bo‘lib, ularning aksariyat qismi to‘g‘ridan-to‘g‘ri Barqaror Rivojlanish maqsadlarini amalga oshirish uchun xizmat qilmoqda. Jumladan, 2020-yilda xalqaro bozorga joylashtirilgan O‘zbekiston Respublikasining 2 trln. so‘m miqdorida milliy valyutadagi xalqaro suveren obligatsiyalari JP Morgan Development Finance Institution tomonidan “rivojlanishni moliyalashtirish obligatsiyasi”, deb tan olingan.

3-rasm. 2018–2022-yillarda davlat ichki qimmatli qog‘ozlari tarkibi¹⁶

2021-yilda xalqaro fond bozorida joylashtirilgan O‘zbekiston Respublikasining 2,5 trln. so‘mlik milliy valyutadagi xalqaro suveren obligatsiyalari “Barqaror rivojlanish maqsadlari”ga (BRM) erishishga

¹⁶ O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi web sayti. www.imv.uz

yoʻnaltirilganligi sababli MDH mintaqasidan chiqarilgan birinchi BRM obligatsiyasi maqomi berilgan.

6-jadval

2020-yilda muomalaga kiritilgan xalqaro suveren obligatsiyalarning barqaror xarajatlar toifalari kesimida mablagʻlarning taqsimlanishi toʻgʻrisida maʼlumot¹⁷

BRM	Barqaror xarajatlar toifasi	Mablagʻlar taqsimoti	Ulushi
3	Kasalxonalar qurish va rekonstruksiya qilish	166,612	8 %
4	Maktablar qurish va rekonstruksiya qilish	328,290	16 %
6	Suv taʼminoti inshootlari va yangi quvurlar qurish	95,620	5 %
9	Avtomobil trassalari va yoʻllarni qurish hamda rekonstruksiya qilish	996,516	50 %
10	Ishsizlik nafaqalarini toʻlash	24,780	1 %
5	Qiyin ijtimoiy ahvolga tushib qolgan nogironligi boʻlgan ayollarni qoʻllab-quvvatlash	13,500	1 %
5	Ayollarga uy-joy xarid qilish uchun dastlabki toʻlovlarni qoplab berish	9,300	1 %
5	Tadbirkor ayollarga kreditlar berish	365,382	18 %
Jami		2,000,000	100.0 %

2022-yilda oʻtgan yillarda xalqaro suveren obligatsiyalar orqali davlat Gʻaznasiga kelib tushgan mablagʻlarning taqsimlanishi hamda ushbu mablagʻlarning BMT tomonidan belgilab berilgan barqaror rivojlanish maqsadlariga taʼsirini baholash yuzasidan Oʻzbekiston Respublikasi Moliya vazirligining BMT Taraqqiyot dasturi bilan hamkorlikda tayyorlangan hisoboti elon qilingan.

Bundan tashqari, 2024-yildan boshlab xorijiy investorlar (Gruziya banki) ham Oʻzbekiston fond bozorida kastodian sifatida faoliyat yurita boshlagan va dastlabki davlat qimmatli qogʻozlari xaridini amalga oshirgan.

Mazkur hisobotga asosan aytish mumkinki, xalqaro suveren obligatsiyalar hisobidan:

22 ta maktab va 3 ta kasalxona qurildi;

20 ta maktab va 13 ta kasalxona rekonstruksiya qilindi;

245,5 km. ichimlik suvi va kanalizatsiya quvurlari hamda 95,8 km. yoʻllar qurildi;

303,1 km. ichimlik suvi va kanalizatsiya quvurlari hamda 100,0 km. yoʻllar rekonstruksiya qilindi.

Shu bilan birga, 4 446 nafar ayol reabilitatsiya jihozlari bilan taʼminlangan boʻlsa, 19 570 nafar ayol tadbirkorlar imtiyozli kredit oldi va bu xarajatlar davlat tomonidan kambagʻallikni qisqartirish hamda inson kapitaliga kiritilgan

¹⁷ Birlashgan Millatlar tashkiloti maʼlumotlaridan foydalanilgan. <https://www.undp.org/uz/uzbekistan/press-releases/uzbekiston-brm-obligatsiyalari-mablaglarini-taqsimlash-va-ularning-samaradorligiga-doir-dastlabki-hisobotini-elon-qildi>

investitsiyaning bir qismi bo‘lgani uchun olib borilgan chora-tadbirlarning bir qismi sifatida xizmat qiladi.

7-jadval

2021-yilda muomalaga kiritilgan xalqaro suveren obligatsiyalarning barqaror xarajatlar toifalari kesimida mablag‘larning taqsimlanishi¹⁸

BRM	Barqaror xarajatlar toifasi	Mablag‘lar taqsimoti	Ulushi
4	Maktablar qurish va rekonstruksiya qilish	438,874	17 %
6	Suv ta‘minoti inshootlari va yangi quvurlar qurish	169,970	7 %
3	Kasalxonalar qurish va rekonstruksiya qilish	343,892	14 %
9	Yer usti va yer osti metrosini qurish	1 349,782	54%
Jami		2,500,000	100.0 %

Amalga oshirilgan chora-tadbirlar samarasi rivojlanish maqsadlarimizga mos kelishi bilan bir qatorda, milliy valyutada chiqarilgan xalqaro suveren obligatsiyalar valyuta riskini investorlar zimmasida qoldiradi hamda mahalliy fond bozoriga xorijiy investorlarni jalb qilish uchun dastlabki qadam bo‘lib qoladi.

Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi tomonidan iqtisodiyotni rivojlantirish va kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha strategik dasturlarni amalga oshirish maqsadida xalqaro moliya institutlari va xorijiy hukumatlarning moliyaviy tashkilotlaridan imtiyozli kreditlar, moliyaviy yordam va texnik ko‘maklar jadal jalb etilmoqda. Bu mablag‘lar, inson kapitaliga sarmoya sifatida kiritilgan bo‘lib, avvalo, sog‘liqni saqlash, ta‘lim va ijtimoiy-iqtisodiy infratuzilmani moliyalashtirish uchun yo‘naltirildi.

Demak, kambag‘allikni qisqartirish O‘zbekiston hukumati uchun ustuvor vazifa bo‘lib, so‘nggi yillarda sezilarli yutuqlarga erishildi. Jahon banki ma‘lumotlariga ko‘ra, O‘zbekistonda kambag‘allikni qisqartirishga qaratilgan chora-tadbirlar natijasida kambag‘allik darajasi 2010-yildagi 26,7 foizdan 2022-yilda 14 foizgacha pasaygan. Bunda hokim yordamchilari 1 million nafar aholini kasb-hunarga o‘qitib, tadbirkorligini boshlashga ko‘maklashgani, daromadli ish bilan band qilgani muhim omil bo‘lgani qayd etildi.

Shu davrda 200 mingga yaqin tadbirkorlik subyekti tashkil qilindi, 10 mingta korxonalar faoliyati kengaytirildi, 11 mingta korxonalar quvvati tiklandi. Bu ishlarni 2023-yilda davom ettirish, bandlikni ta‘minlash bo‘yicha barcha tarmoq va hudud rahbarlariga aniq topshiriqlar berilgan. Jumladan, 2023-yilda 5 million nafar aholi bandligini ta‘minlash, shu jumladan, 2 millionta doimiy ish o‘rinlarini yaratish zarurligi ko‘rsatib o‘tildi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobida **“Davlat qarzidan samarali foydalanish asosida iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish va kambag‘allikni qisqartirish istiqbollari”** deb nomlanib, bunda davlat qarzi ekspansion fiskal siyosatning muhim bo‘g‘ini sifatida o‘rganilgan, jalb qilingan davlat qarzining samarali

¹⁸ Birlashgan Millatlar tashkiloti ma‘lumotlaridan foydalanilgan. <https://www.undp.org/uz/uzbekistan/press-releases/uzbekiston-brm-obligatsiyalari-mablaglarini-taqsimlash-va-ularning-samaradorligiga-doir-dastlabki-hisobotini-elon-qildi>

boshqarilishi va uning miqdorini kamaytirish uchun alternatalarni taklif etadi. Xususan, avvalgi boblarda ko‘rsatilgan ma’lumotlar asosida kambag‘allik darajasi qisqarishiga aholi soni oshishi, tashqi qarz dinamikasi va iqtisodiyot rivojlanishi ta’sir emperik tadqiq qilindi va quyidagi to‘siqlar o‘rganildi.

8-jadval

O‘zbekiston Respublikasida davlatning tashqi qarzini boshqarish yuzasidan takliflar¹⁹

To‘siqlar	
1. Bugungi kunga kelib, loyihani amalga oshirish guruhlari O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklarining hisob-kitob hisobvaraqlari bo‘yicha tashqi qarzni (Respublika nomidan jalb qilingan) o‘zlashtirishni amalga oshirmoqda. Hozirgi bosqichda xorijiy valyutada byudjet mablag‘larining samarali boshqarilishini nazorat qilib bo‘lmaydi va mablag‘lardan maqsadsiz foydalanilganlik (tashqi qarz) uchun javobgarlik belgilab bo‘lmaydi	2. Bugungi kunda tashqi qarzning asosiy qismi hukumatning tegishli qarorlariga muvofiq tuzilgan loyihalarni amalga oshirish guruhlari tomonidan hududlarda sarflanmoqda. Shu bilan birga, loyihani amalga oshirish guruhlari markazlashtirilgan holda boshqariladi va ular o‘z majburiyatlarini o‘z vaqtida bajarmaganligi sababli davlat byudjetidan komissiyalar maqsadga muvofiq to‘lanmaydi
Takliflar	
1. Shu munosabat bilan O‘zbekiston Respublikasi G‘aznachiligi tomonidan tashqi qarzni boshqarish jarayoni, jumladan, xorijiy valyutada byudjet mablag‘lari bo‘yicha barcha bank operatsiyalarini (Respublika nomidan jalb qilingan) qamrab olish bo‘yicha hamma zarur choralarni ko‘rish zarur	2. Umuman, loyihalarni amalga oshirish guruhlari mahalliy hokimiyat organlariga topshirish kerak, chunki ular mahalliy bilim va egalik huquqidan foydalanish imkoniyatiga ega, biroq ayni paytda boshqaruv va javobgarlik bilan bog‘liq salohiyat cheklolari, muvofiqlashtirish masalalari va risklarni diqqat bilan ko‘rib chiqishni talab etadi

Jumladan, davlat qarzini optimal boshqarish bo‘yicha nazariyalar vaqt o‘tishi bilan rivojlanib, turli maqsadlarga e’tibor qaratildi. Bu maqsadlarga makroiqtisodiy barqarorlashtirish, milliy moliya bozorlarini rivojlantirish, pul-kredit siyosatini qo‘llab-quvvatlash, xarajatlar va risklarni minimallashtirish kiradi. Bunda qarzni oqilona boshqarish, qulay shartlarda qarz olish, shaffoflik va hisobdorlikni ta’minlash orqali hukumatlar qashshoqlikni qisqartirish dasturlariga sarmoya kiritish va iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirish uchun zarur fiskal maydonni yaratishi mumkin, natijada kambag‘allikni sezilarli darajada qisqartirishga hissa qo‘shiladi.

Muallifning fikricha, davlat qarzini boshqarish, o‘rta muddatlarga mo‘ljallangan davlat qarzini boshqarish strategiyasini ishlab chiqishdan iborat bo‘ladi, bunda davlat qarzi ulushini yalpi ichki mahsulotga nisbatan 50 foizdan oshirmaslik bo‘yicha qoidani joriy etish zarur. Albatta, O‘zbekiston Respublikasining Davlat qarzi to‘g‘risidagi qonuni bilan davlatning tashqi qarzi YaIMga nisbatan 60 foiz etib belgilangan, bu chegara va taklif etilayotgan 50 foiz ko‘rsatkich orasidagi farq pandemiya, urush hamda boshqa tabiiy ofatlarning salbiy oqibatlarini bartaraf etish uchun qo‘llanadi.

Shu bilan birga, davlatning tashqi qarzi uchun xavfsiz chegara mustahkamlangan ekan, uning to‘lovlari o‘z vaqtida va to‘liq amalga oshirilishini

¹⁹ Manba: www.imv.uz

kafolatlash zarur, buning uchun “Kafolat jamg‘armasi”ning qoldiq mablag‘larini davlatning yillik tashqi qarzi qoldig‘ining 10 foizi miqdorida saqlab turish strategiyasini ishlab chiqish muhimdir.

Bundan tashqari, Davlat qarzini samarali boshqarish uchun davlat nomidan olingan tashqi qarz bo‘yicha barcha moliyaviy jarayonlar markazlashtirilishi (ya’ni, G‘aznachilik qo‘mitasi tomonidan mablag‘lar tashqi kreditor hisob raqamidan yechib olinishi va loyihada belgilangan maqsadlar doirasida sarflanishi yuzasidan monitoring o‘tkazilishi) hamda loyihani amalga oshiruvchi guruhlar tegishliligiga ko‘ra viloyat hokimiyati tarkibida faoliyat yuritishi zarur.

9-jadval

Davlat tashqi qarzining kambag‘allikka bog‘lovchi makroko‘rsatkichlar²⁰

Yillar	Kambag‘allik darajasi, %	Davlatning tashqi qarzi qoldig‘i, mlrd. dollar	Aholi jon boshiga YaIM miqdori, ming so‘m	Kapital bozorini rivojlantirish (kapital bozori kapitalizatsiyasi), trln. so‘m	Tengsizlik (Jini indeksi), %	Doimiy aholi soni, ming kishi
2011	16,0	3 755,8	3 518,6	281,0	28,9	29 123,4
2012	15,0	3 946,4	4 285,2	170,7	28,9	29 555,4
2013	14,1	4 218,1	5 069,3	93,2	28,8	29 993,5
2014	13,3	4 656,0	6 074,2	97,1	28,0	30 492,8
2015	12,8	5 550,2	7 072,2	161,0	27,4	31 022,5
2016	12,3	6 473,0	8 020,1	299,8	26,4	31 575,3
2017	11,9	7 578,0	9 802,1	298,4	26,2	32 120,5
2018	11,4	9 890,0	12 945,7	687,9	26,2	32 656,7
2019	11,0	15 687,0	15 863,8	438,7	26,2	33 255,5
2020	11,5	21 093,0	17 688,5	578,1	27,6	33 905,2
2021	17,0	23 582,0	21 149,2	1 260,5	27,3	34 558,9
2022	14,1	25 914,0	24 919,7	4 811,8	28,3	35 271,3

Quyida keltirilgan 9-jadval ko‘rsatkichlar vaqtli qatorlar xususiyatidan kelib chiqib, mos turdagi ekonometrik modellar asosida mamlakatimizda mavjud kambag‘allik darajasi va unga ta’sir qiluvchi asosiy omillarning ta’siri hamda ular o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni miqdoriy jihatdan baholash mumkin. Buning uchun endogen va egzogen omillarga quyidagi shartli belgilovlarni kiritib olish lozim.

Natijaviy belgi (endogen omil) kambag‘allik darajasi (y), unga ta’sir etuvchi egzogen omillar: davlatning tashqi qarzi qoldig‘i (x_1), aholi jon boshiga YaIM miqdori (x_2), kapital bozorini rivojlantirish (kapital bozori kapitalizatsiyasi) (x_3), Tengsizlik (Gini indeksi) (x_4) va doimiy aholi soni (x_5)ning bog‘liqligini ko‘p omilli regressiya modeli asosida quyidagicha ifodalash mumkin:

$$y = a_0 + a_1x_1 + a_2x_2 + a_3x_3 + a_4x_4 + a_5x_5 + \varepsilon, \quad (1)$$

bu yerda: a_i – modelning noma’lum parametrlari; ε – tasodifiy xatolik.

²⁰ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma’lumotlari asosida tayyorlangan.


Mazkur modelga kiritilayotgan ko'rsatkichlar o'rtasidagi korrelyatsion bog'lanish juft korrelyatsiya matritsasini tuzish orqali baholanadi.

10-jadval

Davlat tashqi qarzining kambag'allikka bog'lovchi makroko'rsatkichlarning korrelyatsiya matritsasi²¹

Matrix of correlations						
Variables	(1)	(2)	(3)	(4)	(5)	(6)
(1) Y	1.000					
(2) X ₁	0.038	1.000				
(3) X ₂	-0.056	0.982	1.000			
(4) X ₃	0.178	0.723	0.755	1.000		
(5) X ₄	0.674	-0.165	-0.284	0.135	1.000	
(6) X ₅	-0.194	0.945	0.981	0.673	-0.443	1.000

Korrelyatsion tahlil natijalariga ko'ra, y va x₁, x₂, x₃, x₅ omillar o'rtasida sust bog'lanish mavjud bo'lsa, y va x₄ omil o'rtasida kuchli bog'lanish mavjudligi, shuningdek, y va x₁, x₃, x₄ omillar o'rtasida to'g'ri hamda y va x₂, x₅ omillar o'rtasida teskari bog'lanish mavjudligi aniqlandi. Bunday bog'liqlikni grafik tahlilda ham kuzatish mumkin (4-rasm).



4-rasm. Natijaviy va omilli ko'rsatkichlar orasidagi bog'lanishning grafikda tasvirlanishi²¹

Yuqoridagi grafikdan ko'rish mumkinki, vaqtli qatorlarda nisbatan trend va tasodifiylik komponentalari mavjud. Ya'ni, natijaviy belgi (y) va unga ta'sir qiluvchi omillar (x_i, i=1,2,3,4,5) o'rtasida chiziqsiz bog'liqlik mavjudligini kuzatish mumkin. Shu boisdan, bunday bog'liqlikni ko'p omilli darajali regressiya modeli ko'rinishida quyidagicha ifodalash mumkin:

$$y = a_0 x_1^{a_1} x_2^{a_2} x_3^{a_3} x_4^{a_4} x_5^{a_5} \quad (2)$$

Mazkur model logarifm hossalariga ko'ra, chiziqli ko'rinishga keltiriladi va uning a_i (i=1,2,3,4,5) noma'lum parametrlari eng kichik kvadratlar usulida aniqlanadi.

²¹ Muallif tomonidan STATA dasturida tuzilgan

**Davlat tashqi qarzining kambag'allikka bog'lovchi makroko'rsatkichlari
bo'yicha asosiy model natijalari²²**

Linear regression							
lnY	Coef.	St.Err.	t-value	p-value	[95% Conf	Interval]	Sig
lnX1	0.085	0.32	0.27	0.8	-0.697	0.867	
lnX2	-0.73	0.956	-0.76	0.474	-3.07	1.61	
lnX3	0.04	0.075	0.53	0.614	-0.143	0.223	
lnX4	1.822	1.419	1.28	0.246	-1.649	5.293	
lnX5	5.941	9.52	0.62	0.556	-17.354	29.236	
Constant	-59.388	90.111	-0.66	0.534	-279.881	161.104	
Mean dependent var		2.584	SD dependent var		0.141		
R-squared		0.599	Number of obs		12		
F-test		1.793	Prob > F		0.248		
Akaike crit. (AIC)		-13.054	Bayesian crit. (BIC)		-10.145		

*** $p < .01$, ** $p < .05$, * $p < .1$

Yuqoridagi hisob-kitoblar natijasida model tuzib olindi.

$$\ln y = 1,6148E - 26 \ln x_1^{0,085} \ln x_2^{-0,73} \ln x_3^{0,04} \ln x_4^{1,822} \ln x_5^{5,941}$$

Regression tahlil natijalariga ko'ra, logarifm qiymatlari bo'yicha x_1 , x_3 , x_4 , x_5 omillarning 1 birlikka o'zgarishi y ning mos ravishda 0.085, 0.04, 1.822 va 5.941 birlikka to'g'ri bog'liqlikda o'zgarishi hamda x_2 omilning 1 birlikka o'zgarishi y ning -0.73 birlikka teskari bog'liqlikda o'zgarishini ko'rsatdi. Shuningdek, y ga eng yuqori ta'sir ko'rsatuvchi omil x_5 (5,941) va x_4 (1,822) ekanligi aniqlangan.

Tuzilgan model baholash mezonlari bo'yicha, jumladan, determinatsiya koeffitsiyenti (R-squared=0.599) bo'yicha model "ishonchli", standart xatolik darajasi (St.Err.→min) normada bo'lsa-da, model Fisher mezoni bo'yicha va t-statistika mezoni bo'yicha model parametrlari statistik jihatdan ahamiyatsiz ekanligi bilan baholandi.

Ta'kidlash lozimki, modelga kiritilgan ko'rsatkichlar o'rtasida (Mean dependent var 2.584) avtokorrelyatsiya mavjudligini ko'rsatdi.

Demak, har bir modelga kiritilayotgan ko'rsatkichlar bo'yicha statsionarlikni tekshirish uchun vaqtli qatorlar Dickey-Fuller testi orqali tekshiriladi. Tahlil har bir ko'rsatkich bo'yicha MacKinnon tahminiy qiymati $p \leq 0,05$ shartni qanoatlantirgunga qadar differensial hisoblash davom ettiriladi.

$d.Y$, $d_6.X_1$, $d_2.X_2$, $d_4.X_3$, $d_2.X_4$, $d_2.X_5$ differensiallangan ko'rsatkichlar asosida ko'p omilli regressiya modeli parametrlari aniqlangan.

Tahlil natijalariga ko'ra, davlatning tashqi qarzi qoldig'i va kapital bozori kapitalizatsiyasi 1 birlikka oshganda natijaviy omil – kambag'allik (kam ta'minlanganlik) darajasi mos ravishda 0.0001 va 0,001 birlikka oshishi hamda aholi jon boshiga YaIM miqdori, tengsizlik (Jini indexi), doimiy aholi soni omillari esa 1 birlikka oshganda natijaviy omil – kambag'allik (kam ta'minlanganlik)

²² Muallif tomonidan STATA dasturida tuzilgan

darajasi mos ravishda -0.003, -2.497, -0.052 birlikka kamayishi mumkinligini ko'rsatdi.

12-jadval

Davlat tashqi qarzining kambag'allikka bog'lovchi makroko'rsatkichlari bo'yicha asosiy model natijalari²³


Linear regression

D.Y	Coef.	St.Err.	t-value	p-value	[95% Conf	Interval]	Sig
D ₆	0.0001	0.0
D ₂	-0.003	0.0
D ₄	0.001	0.0
D ₂	-2.497	0.0
D ₂	-0.052	0.0
Constant	3.445	0.0
Mean dependent var		0.305	SD dependent var		2.787		
R-squared		0.980	Number of obs		6		
F-test		78.584	Prob < F		.		
*** p<.01, ** p<.05, * p<.1							

$$y = 3,445 + 0,0001d6.x_1 - 0,003d2.x_2 + 0,001d4.x_3 - 2,497d2.x_4 - 0,052d2.x_5$$

Ma'lumot uchun: natijaviy omil – kambag'allik (kam ta'minlanganlik) darajasiga ta'sir qiluvchi omillar ta'siri quyidagicha kechikadi, ya'ni davlatning tashqi qarzi qoldig'i ta'siri 6 yilga, kapital bozori kapitalizatsiyasi ta'siri 4 yilga, aholi jon boshiga YaIM miqdori, tengsizlik (Jini indeksi), doimiy aholi soni kabi omillar ta'siri 2 yilgacha kechikishi kuzatilishi mumkin.

O'z o'rnida, davlatning tashqi qarzi hamda kapital bozorining rivojlanishi kambag'allik darajasiga ta'sir ko'rsatmasa-da, mamlakatda jon boshiga YaIM hajmi oshishiga bilvosita turtki bermoqda.



5-rasm. YaIM va Davlat byudjeti xarajatlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik²⁴

Regressiya davlat byudjeti xarajatlari va joriy narxlarida YaIM o'rtasida ijobiy bog'liqlikni ko'rsatadi. Davlat byudjeti xarajatlarining har bir birlikka o'sishi uchun joriy narxlarida YaIM 3,5 birlikka o'sishini bildiradi va R² qiymat 0,9848 ga tengligi model YaIM joriy narxlardagi o'zgarishlarning 98,48 %ini izohlaydi

²³ Muallif tomonidan STATA dasturida tuzilgan

²⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlariga asosan muallif tomonidan tuzilgan.

hamda p -qiymat 0.000 ekanligi o'zgaruvchilar o'rtasidagi bog'liqlik statistik ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.

Demak, iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini rivojlantirishni moliyalashtirish bevosita inklyuziv bo'lishi zarur, agar davlat qarzi chegarasi o'rnatilganligini inobatga olinsa, istiqboldagi maqsadlarni moliyaviy mablag' bilan ta'minlash uchun muqobil moliyalashtirish manbayini rivojlantirish zarurati yuzaga keladi. Bunda kapital bozori mablag'larini samarali jalb qilish, iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish va moliyaviy inklyuziyani ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Yaxshi ishlaydigan kapital bozori korxonalariga samarali faoliyatga investitsiya kiritish, ish o'rinlari yaratish va jismoniy shaxslarga daromad olish uchun arzon moliyadan foydalanish imkoniyatini beradi. Xususan, kapital bozorlari bir necha mexanizmlar orqali qashshoqlikni kamaytirishga bevosita yordam beradi:

Mikromoliyalash. Kapital bozorlari kam ta'minlangan jismoniy shaxslar va tadbirkorlarga kichik kreditlar taklif qiluvchi mikromoliya tashkilotlari uchun moliyalashtirish manbaini ta'minlaydi. Bu kreditlar aholining kam ta'minlangan qatlamlariga biznes boshlash yoki kengaytirish, daromad olish va turmush darajasini yaxshilash imkonini beradi.

Jamg'arma va investitsiya imkoniyatlaridan foydalanish. Kapital bozorlari kishilarga xavfsiz va qulay omonat hamda investitsiya imkoniyatlarini taqdim etadi. Bu fuqarolarga aktivlarini to'plash, chidamlilikni oshirish va kelajagini rejalashtirish imkonini beradi.

Moliyaviy savodxonlik va ta'lim. Kapital bozorining rivojlanishi ko'pincha kambag'allar orasida moliyaviy savodxonlik va ta'lim darajasi oshishiga olib keladi. Bu kishilarga ongli moliyaviy qarorlar qabul qilish, moliyasini samarali boshqarish va yirtqich kreditlash amaliyotlaridan qochish imkonini beradi.

Bundan tashqari, kapital bozorlari iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish va moliyaviy inklyuziyani rag'batlantirish orqali qashshoqlikni kamaytirishga bilvosita hissa qo'shadi. Jumladan, Iqtisodiy o'sish: Kapital bozorlari kapitalni iqtisodiyotning ishlab chiqarish tarmoqlariga samarali taqsimlashda yordam beradi, natijada iqtisodiy o'sish darajasi yuqori bo'ladi. Iqtisodiy o'sish, o'z navbatida, bandlik imkoniyatlarini yaratib, aholi daromadlarini oshiradi, bu esa aholining kam ta'minlangan qatlamlariga bevosita foyda keltiradi.

Moliyaviy inklyuziya: Kapital bozorining rivojlanishi kam ta'minlanganlar, jumladan, kambag'allar uchun moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatini oshirish orqali moliyaviy inklyuzivlikka yordam beradi. Bu kambag'allarga iqtisodiyotda to'liqroq ishtirok etish va u taqdim etayotgan imkoniyatlardan foydalanish imkonini yaratadi.

Bundan tashqari, jalb qilinayotgan davlat qarzi kambag'allikka bevosita ta'sir etishini ta'minlash maqsadida BRM va ESGga bog'langan obligatsiyalarni emissiya qilish dolzarb masala bo'lib, bunda jalb qilinilayotgan mablag'lar manzilliligini ta'minlaydi va kapital bozoridagi ko'tarilgan likvidlik korporativ obligatsiyalarning emissiyasini ham faollashtiradi.

Shuning uchun, davlat tomonidan davlat ishtirokida korxonalar va banklar tomonidan yillik korporativ obligatsiya emissiya qilish talabini joriy etilishi kapital harakatini tezlashtirishi barobarida, moliyaviy inklyuziv muhitni rivojlantirish va moliyaviy savodxonlikni oshirish orqali kambag'allikni qisqartirishga ko'maklashadi.

Kapital bozori davlat qarzigaga muqobil ekanligi e'tiborga olinsa, inklyuziv iqtisodiyotni qo'llab-quvvatlash hamda iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini infratuzilmani moliyalashtirish orqali qo'llab-quvvatlash maqsadida bir necha chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur bo'lib qoladi. Xususan, mazkur tadbirlar doirasida fond bozorida taklif (korxonalar va banklar tomonidan emissiya qilingan qimmatli qog'ozlar)ni rag'batlantirish orqali fiskal xatarlarni kamaytirish hamda talabni ko'paytirish (investorlar bazasini kengaytirish)ga qaratilgan islohotlarni amalga oshirish vositasida inklyuzivlikni ta'minlash zarur.

Jumladan, kapital bozorida taklifni stimullashtirish maqsadida emitent jamiyatlar tomonidan fond bozoriga kirib, mablag' jalb qilish amaliyotini mustahkamlash maqsadida davlat korxonalar uchun kapital bozoriga mablag' jalb etishni majburiy norma sifatida belgilash. Natijada, kapital bozorining likvidligi ortadi va kapital harakati tezlashadi.

Shuning uchun, kapital bozoriga kiritilgan taklifni moliyalashtirish uchun talabni oshirish zarur. Xususan, kapital bozorida sof raqobat muhitini yaratish uchun xorijiy investorlarni mahalliy kapital bozoriga olib kirish zarur va davlat vakolati doirasida ma'muriy to'siqlarni optimallashtirish muhim vazifa bo'lib qoladi. Bunda, xorij tajribasidan o'tgan "Tartibga soluvchi qumdonlar" konsepsiyasidan foydanish maqsadga muvofiq.

Ma'lumot uchun, "Bank of Georgia" (bank) ilk bor "Tartibga soliq qumdoni" orqali O'zbekiston fond bozoriga kirib kelgan va davlat qimmatli qog'ozlaridan xarid qilib, kelajakda "Clearstream" (Lyuksemburgda joylashgan) xalqaro Markaziy qimmatli qog'ozlar depozitariysi uchun sub-kastodian funksiyasini amalga oshiradi.

Bundan tashqari, inklyuzivlikni ta'minlagan holda kapital bozoridagi talabni rivojlantirish maqsadida fuqarolarga jamg'arib boriladigan ixtiyoriy va majburiy pensiya badallarini mahalliy fond bozoridagi qimmatli qog'ozlarni sotib olishga yo'naltirish huquqini yaratish hamda O'zbekiston Respublikasining rezidenti va norezidenti bo'lgan jismoniy shaxslarning aksiyalar bo'yicha hisoblangan dividendlar tarzidagi daromadlari daromad solig'idan ozod qilish zarur.

Ma'lumot uchun, 2014-yilda fuqarolarning shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobraqamlari jami soni 8,7 mln. donani va undagi mablag'lar 1,3 trln. so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilga kelib bu ko'rsatkichlar mos ravishda 24,7 mln. dona va 5,6 trln. so'mga yetdi. Bugungi kunda, kapital bozoridagi obligatsiyalar 20 foizlik daromad keltirishi va Xalq banki tomonidan 12 foizlik daromad berilishini e'tiborga olinsa, fuqarolar daromadi qo'shimcha o'rtacha 450 mlrd. so'mga ortishi kutilmoqda.

Yuqorida qayd etilgan natijalar kambag'allikni qisqartirish va kapital bozorini rivojlantirishga qaratilgan, shuningdek, davlat qarzini optimal boshqarish bo'yicha taklif ishlab chiqish uchun qo'shimcha manba hisoblanadi.

XULOSA

Mazkur dissertatsiya tadqiqoti doirasida quyidagi xulosalar shakllantirildi:

1. "Kafolat jamg'armasi"ning qoldiq mablag'larini yillik davlatning tashqi qarzi qoldig'ining 10 foizi miqdorida saqlab turish strategiyasini ishlab chiqish zarur bo'lib, buning natijasida davlatning tashqi qarzi to'lovlarining o'z vaqtida va

to'liq amalga oshirilishi kafolatlanadi hamda suveren kredit reytingining tushish xavfi kamayadi.

2. Davlat qarzi hisobidan moliyalashtirilayotgan loyihani boshqarish guruhlarini tegishli viloyat hokimiyatlari tarkibiga o'tkazish orqali loyiha boshqaruvini nomarkazlashtirish zarur va jalb qilingan davlat qarzi doirasida yechib olinayotgan mablag'larni G'aznachilik qo'mitasida ochilgan G'aznachilik hisobvaraqlariga o'tkazish orqali pul oqimini markazlashtirish davlat qarzini samarali boshqarishda muhim vazifa sifatida saqlanib qoladi.

3. Shu bilan birga, davlat qarzi yukini kamaytirish hamda xususiy kapitalni siqib chiqarishning oldini olish maqsadida tezkorlik bilan kapital bozorini rivojlantirish zarur.

4. Regression tahlil rivojlangan mamlakatlarda davlat qarzi va kambag'allik o'rtasidagi sezilarli ijobiy munosabatni tasdiqlaydi, bu mazkur masala bo'yicha avvalgi tadqiqotlarga mos keladi.

Yuqorida qayd etilgan muhim xulosalarga asoslanib, qarz barqarorligiga ustuvor ahamiyat berish, iqtisodiy o'sish va inson taraqqiyotiga sarmoya kiritish, tashqi qarzni oqilona boshqarish va kambag'allik bilan bog'liq boshqa omillar, masalan, ishsizlik va resurslarning cheklanishini bartaraf etishda hushyor bo'lish tavsiya etiladi.

Tadqiqot ishida shakllantirilgan ilmiy xulosalardan kelib chiqib, quyidagi taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan:

1. O'zbekiston Respublikasida "Tartibga solish qumdoni" maxsus huquqiy rejimini kapital bozori sohasida va bunga qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organini mas'ul etib belgilash.

2. Davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo'lgan davlat ishtirokidagi korxonalar tomonidan bir moliya yilida jalb qilinadigan qarz mablag'larining kamida 5 foizini qimmatli qog'ozlarning uyushgan savdolarida ESG yoki boshqa turdagi obligatsiyalarini joylashtirish orqali jalb qilish.

3. Fuqarolarga jamg'arib boriladigan ixtiyoriy va majburiy pensiya badallarini mahalliy fond bozoridagi qimmatli qog'ozlarni sotib olishga yo'naltirish huquqini yaratish.

4. O'zbekiston Respublikasining rezidenti va norezidenti bo'lgan jismoniy shaxslarning aksiyalar bo'yicha hisoblangan dividendlar tarzidagi daromadlarini daromad solig'idan ozod qilish.

Mavzu doirasida amalga oshirilgan ilmiy tadqiqot ishlari va olib borilgan ilmiy-nazariy izlanishlarda O'zbekiston Respublikasi nomidan yoki uning kafolati ostida olinadigan davlatning tashqi qarzini jalb etish mexanizmini takomillashtirish masalalari kompleks va tizimli tarzda to'liq o'rganilgan. Mazkur holat dissertatsiya ishida tadqiq etilgan ilmiy-amaliy muammolar va ularni bartaraf etish yuzasidan ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalarning dolzarblik darajasini belgilab beradi.

**РАЗОВЫЙ НАУЧНЫЙ СОВЕТ НА ОСНОВЕ НАУЧНОГО
СОВЕТА № DSc.03/10.12.2019.I.16.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ
СТЕПЕНЕЙ ПРИ ТАШКЕНТСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ
ЭКОНОМИЧЕСКОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

**НАМАНГАНСКИЙ ИНЖЕНЕРНО-ТЕХНОЛОГИЧЕСКИЙ
ИНСТИТУТ**

МИРЗАМАХМУДОВ МАЪРУФЖОН МАХАМАДШАРИФ УГЛИ

**ПУТИ СОКРАЩЕНИЯ БЕДНОСТИ ЗА СЧЕТ ГОСУДАРСТВЕННОГО
ДОЛГА**

**08.00.07 – Финансы, денежное обращение и кредит
08.00.02 – Макроэкономика**

**АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии по экономическим наукам (PhD)**

Ташкент – 2024

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в ВАК под № В2021.2.PhD/Iqt1699.

Диссертация выполнена в Наманганском инженерно-технологическом институте.

Автореферат диссертации размещен на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) на сайте Научного совета (www.tsue.uz) и информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziyo.net).

Научный руководитель:	Махмудов Носир Махмудович доктор экономических наук, профессор
Официальные оппоненты:	Худойкулов Хуршид Хуррамович доктор экономических наук, профессор Умаров Ильхомжон Юлдашевич доктор экономических наук, профессор
Ведущая организация:	Банковско-финансовая академия Республики Узбекистан

Защита диссертации состоится «___» _____ 2024 года в ___ часов на заседании Научного совета DSc.03/10.12.2019.I.16.01 по присуждению ученых степеней при Ташкентском государственном экономическом университете. Адрес: 100066, г. Ташкент, проспект Ислама Каримова, 49. Тел.: (99871) 239-28-72; факс (99871) 239-43-51; e-mail: info@tsue.uz.

С диссертационной работой можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ташкентского государственного экономического университета (зарегистрировано под номером ____). Адрес: 100066, г. Ташкент, проспект Ислама Каримова, 49. Тел.: (99871) 239-28-72; факс: (99871) 239-43-51; e-mail: info@tsue.uz.

Автореферат диссертации разослан «___» _____ 2024 года (протокол реестра № ___ от «___» _____ 2024 года).

С.У. Мехмонов

Председатель разового научного совета на основе научного совета по присуждению ученых степеней, доктор экономических наук, профессор

У.В. Гафуров

Ученый секретарь разового научного совета на основе научного совета по присуждению ученых степеней, доктор экономических наук, профессор

Н.А. Хашимова

Председатель научного семинара при разовом научном совете на основе научного совета по присуждению ученых степеней, доктор экономических наук, профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. Правительства развивающихся стран мира уже много лет развивают отношения в рамках сокращения бедности на уровне государственной политики, чтобы обеспечить рост экономики за счет государственного долга. В частности, «борьба с бедностью и поддержание внешнего долга государства по отношению к ВВП на уровне 60 процентов показывают, что государственный долг может быть эффективным средством сокращения бедности; что денежно-кредитная и фискальная политика государства могут двигаться пропорционально»¹. Например, по данным Всемирного банка, «экономический кризис, начавшийся в мировой экономике в условиях пандемии Covid-19, увеличил в 2020 году число бедных людей с ежедневным доходом до 1,90 долларов США с 88 миллионов до 115 миллионов. К 2030 году ряд экономических рисков и изменение климата приведет к тому, что численность бедных вырастет с 68 миллионов до 132 миллионов»². На основе показателей мировой практики видно, что меры по поддержанию государственного долга на безопасном уровне и сокращению бедности усиливаются, и этот процесс остается актуальным.

В мире роль государственного долга и альтернативных инструментов финансирования экономического развития и сокращения бедности последовательно изучается. Одними из приоритетов исследований, проводимых в этом направлении, являются: влияние эффективного управления государственным долгом на способность страны стимулировать экономический рост и повышать уровень жизни; инвестировать в важнейшую инфраструктуру, образование, программы здравоохранения и социального обеспечения; сокращать бедность в развивающихся странах путем поддержки экономического развития, сохраняя при этом государственный долг на безопасном уровне, а также общественные с точки зрения снижения долговой нагрузки, проблемы расширения инвестиционной базы и повышения ликвидности рынка капитала; проблемы расширения методологической базы оценки уровня сокращения бедности за счет средств государственного долга.

Реформы, реализуемые на этапе развития Нового Узбекистана, включая переход к зеленой экономике, и борьбу с бедностью при ее признании, обеспечение гендерного равенства и проведение политики социальной интеграции, положительно восприняты международными организациями, и подчеркивается, что они становятся движущей силой для региона Центральной Азии. Разумеется, в этом процессе активное привлечение внешнего долга государства и программы реформ, разработанные с участием международных финансовых институтов, превращают Новый Узбекистан в привлекательную страну для инвестиций. В последовательном продолжении

¹ UN ESCAP. Forward-looking Macroeconomic Policies – Re-examining Inflation and Debt Limits, MPDD Policy Briefs, #14. 2013. July.

² UNITED NATIONS DEVELOPMENT PROGRAMME TEMPORARY BASIC INCOME: Protecting Poor and Vulnerable People in Developing Countries. 2020. July. P.5

стратегического развития необходимо эффективно управлять внешним долгом государства, при этом необходимо оценить влияние привлечения внешнего долга на экономическое развитие, в том числе и на бедность, и исследовать развитие инструментов альтернативного финансирования государственного долга.

Диссертационная работа в определенной степени служит реализации задач, отмеченных в указах Президента Республики Узбекистан № УП-158 «О Стратегии «Узбекистан – 2030»» от 11 сентября 2023 года, № ПП-291 «О дополнительных мерах по развитию рынка капитала» от 2 сентября 2023 года, № ПП-3857 «О мерах по повышению эффективности подготовки и реализации проектов с участием международных финансовых институтов и иностранных государственных финансовых организаций» от 16 июля 2018 года, № ПП-3877 «О дополнительных мерах по диверсификации источников внешнего финансирования» от 21 июля 2018 года и других нормативно-правовых документах, связанных с этой сферой.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий в республике. Диссертационное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий в республике I. «Духовно-нравственное и культурное развитие демократического и правового общества, формирование инновационной экономики».

Степень изученности проблемы. Связь между государственным долгом и бедностью обсуждены экономистами-классиками и последователями Кейнса, а также ведущими представителями современной экономики такими, как А.Смит, Д.Хуме, Д.Рикардо, Ф.Хайек, М.Фридман, Дж.Кейнс, Р.Кан, Дж.Тобин, Дж.Наим, С.Шербаз, Э.Окон, О.Мандей, К.Патилло, Л.А.Риччи и другие³.

В странах СНГ Н.Толстоброва, В.Ростников, Б.Алексин, И.Хамалинский, Л.Ахатова, Ф.Салимова, Л.Агаркова, В.Агарков, А.Смагин, Л.Брагинская, Я.Миркин проводили исследования по эффективному использованию государственного долга и теоретическим аспектам его значения в экономическом развитии, включая развитие рынка капитала⁴.

В научных исследованиях ученых Узбекистана таких, как С.Гулямов, Н.Жумаев, Д. Рахмонов, Х.Худойкулов, Н.Махмудов, Ф.Халбекова, Д.Ганиев, Ф.Чориев, С.Хайитов, И.Якубов, Н.Урмонов, Х.Мирахмедов, Р.Джасур и других освещена практическая значимость государственного

